

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY  
YONDASHUVLAR**

**To‘raqulov Iqboljon**

*Farg‘ona viloyati pedagoglarni yangi  
metodikalarga o‘rgatish milliy markazi  
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim  
metodikalari kafedrası o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Maqolada ta‘limning kafolatlanganlik natijasi samaradorlikni va maqsadga erishishni belgilashi tahlil etilgan. ta‘lim-tarbiya jarayoni maqsadi, vositasi, natijasini oldindan o‘rganish, qayd etish yo‘llari bilan o‘qituvchining kafolotlangan natijaga erishishini ta‘minlash usullari yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *pedagogik texnologiya, ta‘lim shakli, modernizatsiya, o‘qitish faoliyati.*

Hozirgi kunda jahon pedagogikasida «pedagogik texnologiya» tushunchasiga turli xil ta‘rif berilganligi ma‘lum. Xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan pedagogik texnologiya tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berilgan: «Pedagogik texnologiya – ta‘lim shakllarini maqbullashtirish uchun inson va texnik resurslarni hamda ularning o‘zaro ta‘sirini e‘tiborga olgan holda, o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimiy uslubidir». Pedagogik texnologiyaga olimlar tomonidan berilgan ta‘riflarni umumlashtirsak, pedagogik texnologiyaning metodologik sifatlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: texnologik sxema, ilmiy asos, tizimlilik, boshqaruvchanlik, samaradorlik, takrorlanuvchanlik.

O‘qituvchi metod tanlashda birinchidan, o‘qitish usuli, o‘qitish faoliyati usullari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishiga; ikkinchidan, maqsadlarga erishishda o‘qituvchi o‘quvchi hamkorligi o‘z aksini topishi shart ekanligiga; uchinchidan o‘quvchilarning yosh, individual psixologik xususiyatiga; to‘rtinchidan, mavzularning izchilligi va tizimlilikini hisobga olganlikka e‘tibor beradi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan talablar pedagogik texnologiyaning interfaol usullarida o‘z aksini topgan. “Aqliy Hujum”, “Yalpi fikriy Hujum”, “Qarorlar shajarasi”, “Zig-zag”, “6x6x6”, “Qora quti”, “Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim”, “Klaster”, “Shlyapa”, kabi metodlarni ta‘lim jarayonida qo‘llash o‘quvchining muayyan nazariy bilimlarni puxta o‘zlashtirishga, vaqtning tejalishiga, har bir o‘quvchi faollikka undalishiga, o‘quvchining erkin va mustaqil fikrlash layoqatini shakllanishiga, o‘quvchida o‘zgalarning fikrini tinglay olish ko‘nikmasini hosil bo‘lishiga, o‘quvchining o‘z fikrini himoya qila olishiga, o‘quvchida bildirilgan fikrlarni umumlashtira olish ko‘nikmasini shakllanishiga, o‘quvchining qiziqishi (motivi) ortishiga, o‘quvchini izlanuvchanlikka ijodkorlikka chorlashiga olib keladi. Shunday qilib ta‘lim jarayoniga interfaol usullarni qo‘llashda o‘qituvchi ta‘lim jarayonining boshqaruvchisi vazifasida bo‘lib, bunda

boshqaruv maqsadi ta'limning obyekti va subyekti sifatida o'quvchiga yo'naltiriladi. Demak, pedagogik texnologiya ta'lim mazmuni usul, shakl va vositalar asosida yuzaga keladi.

«Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi»da boshlang'ich sinf o'qituvchisi qiyofasi quyidagicha ta'riflanadi: «...eng muhimi balalarda o'qish, o'rganishga chinakkam xavas, ishtiyoq uyg'otuvchi, e'tiqod xosil qiluvchi ustoz sifatida alohida o'rin tutadi.....O'zbekiston kelajagi buyuk davlat ekaniga ishonadigan milliy iftixorli bo'lishi; bolalarni xalq pedagogikasi durdonalari hamda milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalay olishi; nutqi ravon, xalq tili boyligi ifoda usuli va tasvir vositalarini adabiy til uslubi va meyorini to'la egallagan bo'lishi» zarur. Uzoq yillar mobaynida qayd etilgan pedagogik kategoriyalar jamiyat ijtimoiy talabi darajasidagi maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun yetarli bo'lib kelgan.

O'qitish jarayoniga faoliyat nuqtai nazaridan yondashish konsepsiyasiga asoslanib, uni tashkil etish quyidagi mantiqiy ketma-ketligini asoslash mumkin: dastlab o'quv materiali mazmunining tavsifi, uni o'rganishdan ko'zlangan maqsad (o'zlashtirish darajalari), shuningdek, pedagogik vazifaning qo'yilish shartlari tahlil etiladi. So'ngra, o'qitishning mos ravishdagi metodlari hamda o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish tizimi ishlab chiqiladi. Shu asosda o'qitish vositalarining ro'yxati tuziladi. Ushbu usul bilan hosil qilingan metod va ta'lim vositalarining yaxlit tizimi Zamonaviy o'qitish texnologiyalari - majmuaviy integral (butun, uzviy bog'liq) tizim bo'lib, unda ta'lim maqsadlari asosida belgilangan ko'nikma va malakalar o'quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o'zlashtirish, ularda muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat elementlarining ma'lum tartibga solingan to'plami sifatida aks etadi. Bunda asosiy maqsad, o'qituvchilarning ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish, innovatsion faoliyatlarini oshirish ham bugungi ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bizga ma'lumki, pedagogikada innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta'limda innovatsion jarayonlarni boshqarish kabi tushunchalar XX asrning 60-yillarida dastlab AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida paydo bo'ldi. O'sha vaqtdayoq Yevropada pedagogik innovatsiyalar markazi va instituti tashkil etilgan edi. Bu tushunchalarning paydo bo'lishi va innovatsion ta'lim nazariyasining yaratilishi to'g'risida ma'lumot beruvchi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu tushunchalar ta'lim tizimini texnologiyalashtirish, pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga kiritish orkali ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish uchun ta'lim jarayonida o'quvchiga do'stona munosabatlarni shakllantirishga urinish natijasida vujudga keldi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida o'tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmida pedagogik faoliyat bu – ijodiy jarayon va pedagogik innovatsiyalar birlashmasi degan yangi ilmiy yo'nalish tarkib topdi. Bu esa o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilish imkonini berdi.

Ma'lumki, mamlakatimizda pedagogik innovatsiyani rivojlantirish muammolari bo'yicha bir qator olimlar, jumladan, J.Yo'ldoshev, N.Azizxo'jayeva, B.Farberman, U.Tolipov, H.Omonov, M.Ochilov, M.Jumaniyozova va boshqalar ilmiy izlanishlar olib bordilar. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodkorlik sifatlarini rivojlantrishda olim G.A.Mkrtchyaning fikrlari o'rinli: «Pedagogik tajriba-sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin: xususiy tajriba, tajriba-sinov ishi, o'qituvchining innovatsion faoliyati. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko'p bo'lsa, o'qituvchi xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi». Aytish mumkinki, innovatsion faoliyat o'qituvchi-pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma'qullanmoqda:

- 1) Faoliyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi).
- 2) Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan).
- 3) O'zgarishlar ko'lamiga ko'ra (lokal, modulli, tizimli).
- 4) Kelib chiqish manbaiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

O'qituvchi innovatsion faoliyatining shakllanishida pedagogik jamoaning alohida o'rni borligini ko'pchilik olimlar ta'kidlab o'tadilar. O'qituvchilarning novatorlik xususiyatlari va ta'lim jarayonidagi yangiliklarga bo'lgan munosabatiga qarab, K.Rodgers va K.Angelovskiy pedagogik jamoa a'zolarini 5 ta guruhga ajratishni taklif etadi:

1. Novatorlar.
2. Oldingi realizatorlar.
3. Oldingi ko'pchilik.
4. Keyingi ko'pchilik.
5. Ikkilanuvchilar.

Ta'lim sifatini oshirish jamiyatning barcha jabhalarida hayotni yaxshilashga olib keladi. Yangilik kiritish ta'lim sifatini oshirishning samarali vositasi bo'lganligi uchun ham rivojlangan davlatlar ta'lim jarayoniga uzluksiz yangilik kiritishga harakat qiladilar. Ko'pgina mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimidagi barcha bo'g'inlar ishtirok etishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, ta'limning kafolatlanganlik natijasi samaradorlikni va maqsadga erishishni belgilaydi. Bundan ko'rinadiki, natija maqsadga qancha yaqin bo'lsa, o'quv-tarbiya jarayoni shuncha samarador hisoblanadi va bu ta'limning zamonaviy texnik vositalari va ilg'or texnologiyalarni amalga oshirishning muhim jihatlaridan bo'lib, ikkinchi talqin, ta'lim-tarbiya jarayoni maqsadi, vositasi, natijasini oldindan o'rganish, qayd etish yo'llari bilan o'qituvchining kafolatlangan natijaga erishishini ta'minlaydi.

1. Abduqodirov A., Ishmuhammedov R., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste'dod, 2008.
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: "Nihol nashryoti, 2013 yil 278 bet.
3. Jumayev M.E., Yuldasheva M.Y., Mingbayeva B.U., Mamatova G.A. "Boshlang'ich ta'limni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innavatsiyalar" metodik uslubiy qo'llanma – T.: 2017 y.